



PISA XALQARO BAHOLASH DASTURIDA O'QUVCHILARNING O'QISH SAVODXONLIGINI BAHOLASHDA FOYDALANILADIGAN TOPSHIRIQLAR USTIDA ISHLASH



TURANAZAROVA NILUFAR

Stajyor-o'qituvchi, Jizzax davlat
pedagogika universiteti

Jizzax, O'zbekiston

turanazarovanilufar@gmail.com

<https://doi.org/10.47689/STARS.university-pp120-123>

Annotatsiya: Ushbu maqola PISA xalqaro baholash dasturi tadqiqotlarini o'tkazishda qo'llaniladigan topshiriqlarni takomillashtirish va topshiriq matnlari ustida olib boriladigan ishlar bo'yicha dasturda ishtirok etadigan muassasalar hamda o'quvchilarga samarali ko'mak berishga qaratilgan.

Kalit so'z: PISA xalqaro baholash, o'qish savodxonligi, topshiriqlar, matn, o'quvchi.

PISA tadqiqotlari topshiriqning murakkabligi, o'ziga xos xususiyati, maqsadidan kelib chiqib o'zgaradi, ammo bu o'zgarish o'zgacha bilish jarayonlarini amalga oshirishni taqozo etadi. Shu asosida aytishimiz mumkinki, PISA o'quvchilarning o'qish savodxonligini baholash dasturi sifatida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilar tomonidan o'qiladigan topshiriq ko'lamini, hajmini o'zgartirish, o'qishdan ko'zlangan maqsad yoki o'qish uchun talab etilgan turli vaziyatlar yordamida o'quvchilarning o'qish jarayonlarini (matnga nisbatan aqlan yondashuv) boshqarishni nazorat qiladi. O'quvchilarning bilim va o'qish ko'nikmasiga bir xil baho berilmaydi, chunki shunday "o'quvchi bilan bog'liq omillar" mavjudki, bu omillar aql bilan boshqarilmaydi, aksincha, ular bajargan topshiriqlar natijasi baholash mezonlari orqali boshqariladi.

O'qish savodxonligidagi 3 xususiyatdan foydalanib baholash mezonlari ishlab chiqiladi va, albatta, bu xususiyatlarning qiymatlarini ham aniqlash muhim bir masaladir. O'qish savodxonligining bunday xususiyatga ega ekanligi test materialini tuzuvchilarga natijalarni talqin etish, ma'lumotlarni izohlashda foydalanish mumkin bo'lgan topshiriqlarni tasniflashga katta yordam beradi. Mana shunday topshiriqlar bevosita matn bilan ishlash orqali bajariladi. Masalan, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari 4-sinf o'qish darsligidan o'quvchilarga Dilfuza Shomalikovaning "Kuz hayajonlari" asari uchun berishi mumkin bo'lgan topshiriqni olaylik, quyida matn va matn uchun tayyorlangan topshiriqni keltirib o'taman:

Kuz hayajonlari

Kuz yozga alla aytdi. Qish esa kuzga allasini xirgoyi qilayotir. Bog'lar to'nini almashtirdi. Dov-daraxtlar bir xil rangga bo'yalganidek, yelkalariga sarg'imtir choponini ilishgan. Tabiat oltinday tovlanadi. Binolar ortidan boshlanadigan bog'lar, tutzorlar, yiroq adirlar, tepaliklar yarim beligacha qirmizi rang quyosh nuriga cho'miladi.

Yoz bo'yi yer-u ko'kni tandirday qizitgan quyoshning tafti so'ngan. Osmon-u falakda kuz havosi. Osmonda parqu bulutlar suzib yuribdi. Bulutlar esa kuzning darakchisi. Osmonning tusi o'zgaradi. Katta bayramga yasanayotgandek, yelkasiga guldor libos tashlagan kelinchakdek ko'zga yaqin bo'lib qoladi.

Gala-galachumchuqlar, chug'urchuqlar, maynalar daraxtshoxlari, simyog'ochlarga qo'nib olib, issiq o'lkalarga uchish maslahatini boshlaydilar. Janub tomon yo'l olgan turnalarning "qiyov-qiyov" ovozi eshitgan bolalar ko'kka qarab qo'l silkib qoladilar. Qizaloqlar ham olis o'lkalarga yo'l olgan turnalarni xomush kuzatadilar.

Kuz havosi dillarga zavq bag'ishlaydi. Kishilar quyoshning taftidan rohatlanadilar. Onda-sonda osmonga ko'tarilgan qora bulutlar odamlarni qo'rqitmoq istaydi. Qish taraddudini ko'rishga undaydi. Ko'p o'tmay yomg'ir shivalaydi.

Dehqon bobo nabiralarim yesin deb chetanga qovun bosadi. Ekin-tikinlarni yig'ishtirishga kirishadi. Uzum, anor, behilarni ombor shiplariga osadi. Kartoshka, sabzi, sholg'omlarni o'ralarga joylaydi. Qo'llarini duoga ochib, yurtga tinchlik-totuvlik, elga hurlik, to'kinlik, yoshlarimizga bekam baxt-u saodat, ilm-u ma'rifat so'raydi.

Hosil yig'ilmasdan havo aynisa, yomg'ir momolarning yuragiga yog'gandek bo'ladi. Katta-kichik dalada paxta hosilini tezroq yig'ib olmoq payida. Ularning chehrasi quyosh aksi ko'chgandek tovlanadi.

Hademay o'lkamizda hosil bayrami boshlanadi.

"Kuz hayajonlari" mavzusiga oid fikrlaringizni quyidagi namuna asosida yozing:

Tabiat hodisalari: _____

Qushlar: _____

Odamlarning munosabati: _____

Bobodehqon mehnati: _____

Mevalar: _____

Dala ekinlar: _____

"Kuz hayajonlari" mavzuga oid mantiqiy topshiriqlar

So'zlar O'xshatishlar

_____	_____
_____	_____
_____	_____
_____	_____
_____	_____

“Ketma-ketlikni top”

Gaplar:

- Osmonda parqu bulutlar suzib yuribdi.
- Ko‘p o‘tmay yomg‘ir shivalaydi.
- Bog‘lar to‘nini almashtirdi.
- Janub tomon yo‘l olgan turnalarning “qiyov-qiyov” ovozini eshitgan bolalar ko‘kka qarab qo‘l silkib qoladilar.
- Hosil yig‘ilmasdan havo aynisa, yomg‘ir momolarning yuragiga yog‘gandek bo‘ladi.
- Dehqon bobo nabiralarim yesin deb qovun bosadi.
- Yoz bo‘yi yer-u ko‘kni tandirday qizitgan quyoshning tafti so‘ngan.
- Qo‘llarini duoga ochib, yurtga tinchlik-totuvlik, elga hurlik, to‘kinlik, yoshlarimizga bekam baxt-u saodat, ilm-u ma‘rifat so‘raydi.
- Hademay o‘lkamizda hosil bayrami boshlanadi.
- Qish taraddudini ko‘rishga undaydi.

Tartibsiz berilgan harflardan so‘z hosil qiling.

RIGYIOX _____
TG‘RAIMRIS _____
CHIO G‘YOSM _____
OTAKRASHK _____
IZMZIQI _____

Quyidagi birikmalar asosida gaplar tuzing.

Sarg‘imtir chopon _____
Parqu bulutlar _____
Ko‘zga yaqin _____

Ona tabiat haqida qanday maqollar bilasiz?

Yuqorida berilgan topshiriqlarni bajarish uchun o‘quvchi, eng avvalo, topshiriqda ifodalangan ma‘lumotlar kiritilgan matn bilan tanishishlari zarur ekanligi shu namunada ham o‘z isbotini topgan. Matndagi ma‘lumotlarni turli yo‘sinda ichki aqliy imkoniyatlar yordamida qayta ishlash orqali topshiriqlarni bajarish mumkin bo‘ladi.

O'quvchining topshiriq shartlarini mustaqil tarzda talqin qila olishi topshiriqni bajarilish jarayoni uchun muhimdir, ammo o'quvchining matndan olgan tushunchasi topshiriqni bajarish uchun berilgan yaqqol ko'rsatmasidan boshqacha bo'lishi mumkin, chunki xulosalar o'quvchilarning o'z aql va zehni, qiziqishlari va tashabbuslari asosida hosil qilinadi. Shunga qaramay, PISA o'quvchilarning o'qish savodxonligini baholovchi xalqaro dastur sifatida o'quvchilar berilgan topshiriqni bajarishlari uchun aniq shart va ko'rsatmalar asosida shakllanadigan ma'lumotlarga e'tibor qaratadi. Topshiriqlardan tashqari PISA dasturining asosiy so'rovnomasida o'quvchining o'qish savodxonligi usullaridan xabardorligini tekshish ham ko'zda tutilgan. Kelgusida o'tkaziladigan dastur jarayonlarida o'quvchilarning topshiriqlarni bajarish ko'nikmalarini baholash sifatida kompyuterda bajarilgan savollarni tahlil qilish (masalan, topshiriqni bajarish mobaynida o'quvchi matnning muayyan sahifasini necha marotaba va qancha vaqt oralig'ida o'qishi yoki o'quvchi savolga necha marotaba nazar tashlashi kabi) ko'rsatkichlari ham hisobga olinadi. Xulosa qiladigan bo'lsak, PISA xalqaro baholash qamrovi doirasi o'quvchilarning maqsadli o'qish faoliyatini tashkil etuvchi bilish jarayonlarining tushunarli va batafsil tasnifini yoritib beruvchi tadqiqot ishidir, chunki u alohida yoki bir necha matnlar bilan ishlash ko'nikmalarini batafsil yoritib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ismailov A. va boshqalar Xalqaro tadqiqotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholash (Boshlang'ich sinf o'qituvchilari, metodistlar va soha mutaxassislari uchun metodik qo'llanma). Toshkent, 2019-yil, 92 bet.
2. Norboyeva D. 4-sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholash bo'yicha o'tkaziladigan xalqaro tadqiqotlarga tayyorgarlik ko'rish uchun daftari Toshkent, 2019-yil, 15 bet.
3. www.oecd.org/pisa - Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining rasmiy veb sayti
4. S.Matchonov, A.Shojalilov, X.G'ulomova, Sh.Sariyev, Z.Dolimov 4-sinf O'qish kitobi-Toshkent 2017.